

GLOBALLASHUV DAVRIDA TALABA-QIZLAR ONGLI VATANPARVARLIGINI SHAKLLANTIRISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-192-196>

Xaydarova Ra'no Anvarovna
TDSHU katta o'qituvchisi,
rano_xaydarova@tsuos.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada globallashuv sharoitida talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikni shakllantirish masalalari yoritiladi. Ochiq axborot va madaniy makonning kengayishi yoshlar uchun yangi imkoniyatlar bilan birga qadriy xatarlarni ham yuzaga keltirishi asoslanadi. Talaba-qizlarning ijtimoiy-madaniy ta'sirlarga sezgirligi inobatga olinib, ongli vatanparvarlikni rivojlantirishda maqsadli pedagogik yondashuvning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Maqolada ongli vatanparvarlik ko'p komponentli ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida talqin qilinib, uni shakllantirishda ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarning roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, talaba-qizlar, ongli vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar, sotsializatsiya, refleksiv ta'lim, pedagogik qo'llab-quvvatlash.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы формирования осознанного патриотизма у студенток в условиях глобализации. Обосновывается, что расширение открытого информационного и культурного пространства наряду с новыми возможностями для молодежи порождает и определённые ценностные риски. С учётом высокой чувствительности студенток к социально-культурным воздействиям показана значимость целенаправленного педагогического подхода в развитии осознанного патриотизма. Осознанный патриотизм трактуется как многокомпонентное социально-педагогическое явление, раскрывается роль социально-педагогических механизмов в его формировании.

Ключевые слова: глобализация, студентки, осознанный патриотизм, национальные ценности, гражданская ответственность, социально-педагогические механизмы, социализация, рефлексивное обучение, педагогическая поддержка.

ANNOTATION

The article examines the issues of developing conscious patriotism among female students in the context of globalization. It substantiates that the expansion of the open informational and cultural space, along with new opportunities for young people, also generates certain value-related risks. Taking into account the high sensitivity of female students to socio-cultural influences, the importance of a targeted pedagogical approach in fostering conscious patriotism is emphasized. Conscious patriotism is interpreted as a multi-component socio-pedagogical phenomenon, and the role of socio-pedagogical mechanisms in its formation is revealed.

Keywords: globalization, female students, conscious patriotism, national values, civic responsibility, socio-pedagogical mechanisms, socialization, reflective learning, pedagogical support.

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi sharoitida yoshlar ochiq axborot va madaniy makonda shakllanmoqda. Xalqaro ta'lim dasturlari, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar yosh avlod dunyoqarashini kengaytirib, turli

madaniyatlar bilan muloqot qilish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, bunday ochiqlik an'anaviy qadriyatlarning zaiflashuvi, dunyoqarash barqarorligining pasayishi va shaxsiy identitetni shakllantirishdagi murakkabliklar bilan kechmoqda [1].

Ochiq axborot muhiti talaba-qizlar uchun bir vaqtning o'zida rivojlanish imkoniyatlari va aksiologik xatarlarni yuzaga keltiradi. Raqamli kontentning haddan tashqari ko'pligi va madaniy ta'sirlarning xilma-xilligi an'anaviy ijtimoiy hamda gender tasavvurlar bilan zamonaviy o'zini namoyon etish g'oyalari o'rtasida ichki ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin. Biroq globallashuv sifatli ta'lim olish, xalqaro loyihalarda ishtirok etish, tanqidiy fikrlash va yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ham yaratadi [1], [3].

Mazkur sharoitda ongli vatanparvarlik yoshlarning ijtimoiy barqarorligi va milliy identitetini saqlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida maqbul pedagogik va psixologik sharoitlar yaratilgan taqdirda, globallashuv bilan bog'liq qadriy xatarlar shaxsning yetuk, mas'uliyatli va ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi imkoniyatlarga aylanishi mumkin[4].

Tadqiqotning maqsadi globallashuv sharoitida talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikni rivojlantirishni ta'minlovchi ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarni aniqlash va ilmiy jihatdan asoslash, shuningdek, mazkur jarayonning barqaror, chuqur va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lish sharoitlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy jamiyatning global o'zgarishlar sharoitida milliy identitetini saqlay oladigan, ijtimoiy yetuk va mas'uliyatli yosh avlodga bo'lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Ushbu jarayonda talaba-qizlarga alohida e'tibor qaratilishi bejiz emas, chunki ular kelgusida oilada va jamiyatda ma'naviy-axloqiy hamda madaniy qadriyatlarning asosiy tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Ayollarning fuqarolik pozitsiyasi va qadriy barqarorligi kelajak avlod dunyoqarashining shakllanishida muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Talaba-qizlar qadriyatlar muhitidagi o'zgarishlarga nisbatan sezgir ijtimoiy guruh bo'lib, ularning ongli vatanparvarligini shakllantirish maqsadli va ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvni talab etadi. Shu bois mazkur yo'nalishda samarali mexanizmlarni ishlab chiqish ta'lim tizimining ustuvor vazifalariga mos keladi hamda jamiyatning ma'naviy-axloqiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Globallashuv jarayonlari zamonaviy yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatib, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy moslashuv uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirayotgan bir paytda, qadriyatlar barqarorligiga doir muayyan xavf-xatarlarni ham kuchaytirmoqda. Xalqaro axborot almashinuvi, raqamli texnologiyalarning jadallik bilan rivojlanishi hamda transmilliy madaniy oqimlar yosh avlodning dunyoqarashi va o'zini anglash jarayoniga bevosita ta'sir etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda ushbu hodisa sotsiologiya, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik va ijtimoiy psixologiya doirasida kompleks tahlil qilinib, globallashuv sharoitida shaxsiy va ijtimoiy identitet an'anaviy

barqaror shakldan ko‘ra moslashuvchan, ko‘p qatlamli va kontekstga bog‘liq tus olayotgani ta’kidlanadi.

Aksariyat tadqiqotchilar fikricha, axborot oqimlarining ko‘pligi va madaniy modellar xilma-xilligi yoshlarning identifikatsiya jarayonini tashqi ta’sirlarga nisbatan ochiqroq qilib, ularning qadriy yo‘nalishlarida tezkor o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, raqamli makonda faol bo‘lgan yoshlar turli ijtimoiy me’yorlar, madaniy namunalarga muntazam duch kelishi natijasida qadriy transformatsiyalarga nisbatan yuqori sezgirlikni namoyon etadi. Bu holat bir tomondan tanqidiy fikrlash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirsa, ikkinchi tomondan ichki psixologik noaniqlik va qadriy ziddiyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Ilmiy manbalarda yoshlarning identiteti tobora “kengaytirilgan tanlov” sharoitida shakllanayotgani qayd etilib, doimiy ravishda o‘z pozitsiyasini belgilash zarurati shaxsda beqarorlik, ijtimoiy bosim va ichki ikkilanish holatlarini kuchaytirishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, globallashuv jarayonlari milliy identitetni inkor etmay, aksincha, uni ongli ravishda qayta anglash va mustahkamlash uchun yangi ta’limiy, madaniy va kommunikativ imkoniyatlar ham yaratmoqda.

Ayniqsa, talaba-qizlar globallashuv sharoitida ijtimoiy va madaniy ta’sirlarga nisbatan sezgir bo‘lgan ijtimoiy-demografik guruh sifatida ajralib turadi. Pedagogik qo‘llab-quvvatlash, reflektiv ta’lim muhiti va maqsadli tarbiyaviy yondashuvlar mavjud bo‘lgan taqdirda, ular global madaniy tajribani milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirib, o‘z shaxsiy dunyoqarash tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qila oladi. Bu esa talaba-qizlarda barqaror ijtimoiy identitet, ongli fuqarolik pozitsiyasi va milliy o‘zlikni ichki resurs sifatida anglash jarayonini ta’minlaydi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda vatanparvarlik murakkab va ko‘p komponentli ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida talqin etilib, unda aksiologik, psixologik va pedagogik jihatlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Aksiologik nuqtayi nazardan vatanparvarlik shaxsning o‘z xalqi, davlati, madaniy merosi va tarixiy xotirasiga nisbatan munosabatini belgilovchi barqaror qadriyatlar tizimini ifodalaydi. Ushbu qadriyatlar shaxs dunyoqarashining asosini tashkil etib, uning hayotiy maqsadlari, ijtimoiy xulq-atvori va fuqarolik tanlovlarini yo‘naltiruvchi mezon sifatida xizmat qiladi. Vatanparvarlik qadriyatlari o‘z yurtiga muhabbat, milliy ramz va an’analarga hurmat, tarixiy merosga e’tibor hamda jamiyat farovonligiga hissa qo‘shishga tayyorlik kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi[8].

Psixologik yondashuvda vatanparvarlik shaxsning ichki emotsional-kechinmalari, mansublik hissi va identifikatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda qaraladi. Bu jihatdan vatanparvarlik shaxsda o‘z yurti va xalqiga nisbatan barqaror emotsional bog‘liqlikni, jamiyat taqdiriga daxldorlik hissini hamda fuqarolik mas’uliyatini ongli ravishda anglashni ta’minlaydi. Psixologik komponent shaxsning ijtimoiy voqelarga befarq bo‘lmasligi, milliy manfaatlar bilan bog‘liq masalalarda faol pozitsiya egallashi va ijtimoiy jarayonlarga emotsional jihatdan jalb etilishini belgilaydi.

Pedagogik yondashuv esa vatanparvarlikni shaxs uchun real va mazmunli sifatga aylantirish jarayonini nazarda tutadi. Mazkur yondashuvda vatanparvarlik faqat deklarativ yoki tashqi xatti-harakatlar majmui sifatida emas, balki shaxsning ongli, reflektiv va ichki qadriyatiga aylanishi lozimligi ta’kidlanadi. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, madaniy refleksiyaning shakllantirish, ijtimoiy loyihalar va faol fuqarolik ishtirokini rag’batlantiruvchi pedagogik metodlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bunday yondashuv yoshlarning milliy qadriyatlarni tayyor shaklda qabul qilishiga emas, balki ularni ongli ravishda anglab, shaxsiy hayotiy pozitsiyasiga singdirishiga xizmat qiladi.

Mazkur kontekstda “ongli vatanparvarlik” tushunchasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ongli vatanparvarlik tashqi shiorlar, formal tadbirlar yoki ramziy atributlarga asoslanmay, balki milliy madaniyatni chuqur bilish, tarixiy tajribani tanqidiy idrok etish va fuqarolik burchiga mas’uliyat bilan yondashishga tayanadi. Ushbu yondashuv vatanparvarlikni ichki motivatsiyaga asoslangan, barqaror va shaxsiy ahamiyatga ega qadriyat sifatida shakllantirish imkonini beradi. Natijada shaxs milliy identitetni majburiyat sifatida emas, balki o’zini anglash va ijtimoiy barqarorlik manbai sifatida qabul qiladi.

Talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikni shakllantirish jarayonini ilmiy tahlil qilishda A. V. Mudrik tomonidan ishlab chiqilgan sotsializatsiya mexanizmlari muhim metodologik asos bo’lib xizmat qiladi. Mazkur konsepsiyaga ko’ra, psixologik va ijtimoiy-psixologik mexanizmlar — imprinting, identifikatsiya, taqlid va refleksiya — tashqi ijtimoiy va madaniy ta’sirlarning shaxs ichki dunyosiga singib, barqaror qadriyatlarga aylanishini ta’minlaydi. Ushbu mexanizmlar orqali talaba-qizlar o’z madaniy muhitini his etadi, ijtimoiy rollarni o’zlashtiradi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.

Ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar — an’anaviy, institutsional, stilizatsion va shaxslararo mexanizmlar esa ushbu jarayonning tashkiliy, madaniy va tarbiyaviy sharoitlarini belgilaydi. Oila, ta’lim muassasalari, madaniy institutlar hamda ijtimoiy muloqot muhiti talaba-qizlarda milliy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda muhim rol o’ynaydi. Ushbu mexanizmlarning uyg’un va muvofiqlashtirilgan faoliyati talaba-qizlarda milliy identitetning ongli ravishda shakllanishiga, fuqarolik mas’uliyatining kuchayishiga va globallashtirish sharoitida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi shaxsiy resurslarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, globallashtirish sharoitida talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikning shakllanishi tashqi ijtimoiy ta’sirlar va ichki psixologik-qadriy mexanizmlarning o’zaro uyg’unligiga bog’liq. Pedagogik qo’llab-quvvatlash va reflektiv yondashuv mavjud bo’lgan taqdirda yoshlar global imkoniyatlarni milliy identitetni mustahkamllovchi shaxsiy resursga aylantira oladi.

A. V. Mudrik ta’riflagan sotsializatsiya mexanizmlarining muvofiqlashtirilgan ta’siri formal vatanparvarlikdan ongli, mazmunli va barqaror fuqarolik pozitsiyasiga o’tishni ta’minlaydi. Natijada talaba-qizlarda milliy madaniyatni

anglash, mustaqil fuqarolik tanlovi va global o'zgarishlar sharoitida ijtimoiy barqarorlikni saqlash qobiliyati shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Муха В. Н., Тужба Э. Н. Глобализация и социальная идентичность: социокультурный анализ // Russian Journal of Education and Psychology. – 2013. – № 10 (30). – С. 45–54.
2. Мудрик А. В. Исследование трансформации механизмов социализации: проективные результаты // Вестник ПСТГУ. Серия IV: Педагогика. Психология. – 2014. – № 4 (35). – С. 9–23.
3. Грошева И. А., Грошев И. Л. Трансформация социальной идентичности молодёжи в глобализирующемся обществе // Научные труды Кубанского государственного технологического университета. – 2020. – № 3. – С. 162–170.
4. Хайдарова Р. А. Современные проблемы развития патриотизма у студенток в международном контексте // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2025. – Т. 5. – № 6. – С. 262–272.
5. Xaydarova R. A. Filologiya yo'nalishi talaba-qizlari vatanparvarligini rivojlantirishda loyiha ta'lim texnologiyasidan samarali foydalanish // O'zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari jurnali. – 2025. – № 1. – B. 188–193.
6. Xaydarova R. A. Project-Based Educational Technology as a Method for Developing Social Activity of Students // Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies. – 2025. – Vol. 3. – Issue 3. – P. 44–47.
7. Egamberdiyeva N. M., Xaydarova R. A. Talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikni aniqlashda L. Starkning tanqidiy fikrlashni baholovchi modifikatsiya qilingan testidan foydalanish metodikasi // Maktabgacha va maktab ta'limi. – 2025. – № 7. – B. 479–484.
8. Хайдарова Р. А. Влияние критического мышления на развитие патриотизма // Inter Education & Global Study. – 2024. – № 3. – С. 55–60.